



## Sulton Iskandar Mirzo Davrida Ilm – Fan Taraqqiyoti

**Jo‘rayev Jamoliddin Aminjonovich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

### ABSTRACT

Maqolada Amir Temurning nabirasi Umarshayxning o‘g‘li Sulton Iskandar Mirzominig Forsda hukmronligi davrida ilm-fanning rivojlanishi va uning saroyida ijod qilgan shoir Haydar Xorazmiy va Muiniddin Natanziy kabi olimlar va fuzalolarning ijodi haqida qisacha ma’lumot berdi.

In the article, he gave brief information about the development of science during the reign of Sultan Iskandar Mirzani, the son of Umarshaikh, the grandson of Amir Temur, and the work of scientists and scholars, such as the poet Haydar Khorazmi and Muiniddin Natanzi, who worked in his court.

V state on dal kratkuyu informatsiyu o razvitiu nauki v period pravleniya sultana Iskandara Mirzani, syna Umarsheyxa, vnuka Amira Temura, a takje o deyatelnosti uchyonix i uchyonix, takix kak poet Xaydar Xorezmi i Muyniddin Natanzi, kotoriy rabotal pri yego dvore.

### ARTICLE INFO

**Received:** 6<sup>th</sup> December 2023

**Revised:** 4<sup>th</sup> January 2024

**Accepted:** 7<sup>th</sup> February 2024

### K E Y W O R D S:

temuriylar, ilm, fan, madaniy, adabiy, muhit, san‘at, adabiyot, tarix, olimlar, taraqqiyot Timurids, science, cultural, literary, environment, art, literature, history, scientists, development.

Timuridы, nauka, kulturnaya, literaturnaya, okrujajuushchaia sreda, iskusstvo, literatura, istoriya, uchyonые, razvitie

Temuriylar davrida fan va madaniyatning taraqqiy etishining adabiyot va tarix sohasida xam ko‘rinadi. XV asrda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, adabiyot, san‘at va madaniyatning XII-XIII asrlarga nisbatan keng taraqqiy etishi tasodifiy bir hol emas edi. Chunki, Amir Temur tomonidan asos solingen temuriylar davlatining poytaxti Samarqandga dunyodagi o‘z kasbining mohir usta va naqqoshlari, shoir va xattotlari yig‘ildi hamda keyingi davrlar uchun ham bu manba vazifasini o‘tadi. Shuning uchun ham Samarqandda, keyinchalik ikkinchi poytaxt sifatida tashkil topgan Xurosonning Hirot shahrida san‘at va adabiyot sohalarining eng mashhur namoyandalari yetishib chiqdi.

Bu davrda Samarkand va Hirotda Amir Temur an‘analari davom ettirilib, bu poytaxt shaxarlarda olimu fuzalolar, shoiru bastakorlar, me‘moru binokorlar va naqkoshu mohir xunarmandlarning kattagina guruhi to‘plangan edi. [9: 99]

Haydar Xorazmiy Amir Temurning nabirasi Sulton Iskandar mirzo ibn Umarshayxning Forsning Sheroz viloyatida podsholigi davrida ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan ijodkorlardan. [5: 368] Ma’lumki, Amir Temur 1392-1393 yillarda o‘zining ikkinchi o‘g‘li Umarshayxga Fors o‘lkasini zabit etish ishiga mutasaddi qilib tayinlaydi. Binobarin u Istahr, Farak, Shahriyor va shunga o‘xshash bir necha qal’alarni zabit etadi. Umar Shayx Mirzo Sherozda Hartomu deb nomlangan zab etish uchun qal’ani yaqinroq tomosho qilaman deb bir

tepalik ustiga chiqib, qal'a tomon nazar tashlaydi shu zahoti nogohoniy otilgan o'q unga tegadi va u vafot etadi.

Mavlono Haydar Xorazmiyning qaysi shaharida qachon tug'ulgani va qachon va qaerda vafot etgani hozircha to'liq ma'lum emas. Ma'lumotlarga ko'ra XIV asrning birinchi yarmi va XV asr boshlarida yashab ijod qilgan. Mir Haydarning kelib chiqishi Xorazmdan. [12:236] Undan Bizgacha "Maxzan ul-asror" vaznida "Gulshan ul-asror", "Xisrav va Shirin" vaznida "Gul va Navro'z", payg'ambarimizning me'rojga chiqqan voqeasi haqida turkiy tilda yozilgan "Me'rojnama" va Mirzo Ulug'bekka atab yozilgan bir qasidasi bizgacha yetib kelgan.

1400 yilda sohibqiron Amir Temur Forsda hukmron bo'lib turgan nabirasi Pir Muhammad Mirzo (Umarshayx Mirzoning katta o'g'li) Sheroyi sohibqironning yurishlaridan biriga o'zini kasallikka solib qatnashmaganligi sababli uni hokimlik mansabidan olinadi.

Faqat 1403 yilda Pir Muhammmad Mirzoga Sherozni qaytarib beradi. 1405 yilda Amir Temur Iskandar Mirzoni Hamadonga hokim etib tayinlaydi. 1410 yilda Pir Muhammad Mirzo Sheroyi Kermen viloyatidan, Duchoha mavze'ida amir Xoja Husayin sharbatdor tomonidan qatl etilgach, 1410 yilda Iskandar mirzo akasining vorisi sifatida uning o'rniغا taxtga o'tiradi.

Iskandar Mirzo garchi oz muddat hukmronlik qilgan bo'lsa-da, shu muddat ichida o'zining saroyi atrofiga anchagina olim va shoirlarni to'play olgan edi. Bulardan Muyniddin Natanziy, Haydar Xorazmiy kabilar. [5:103] Ma'lumki, XV asarning birinchi yarmida Samarqand va Hirot o'zining adabiy muhiti va ilmiy markazlari bilan birga bosha joylarda, jumladan Forsda ham birmuncha adabiy madaniy kuchlar to'planib, tarixda ma'lum iz qoldirdi.

Fors o'lkasidagi madaniy-adabiy muhit hali yetaricha o'rganilmagan. Bu davrda ijod etgan so'z san'atkorlarining ijodiy faoliyati har tomonlama tekshirilmagan. Shunga qaramay mavjud ma'lumotlar asosida XV asrning birinchi choragida Forsdag'i adabiy muhit- Haydar Xorazmiy yashab ijod etgan adabiy-ma'naviy muhit tug'risida qo'yidagilarni aytish mumkin. [4:64]

Buning misoli sifatida Muiniddin Natanziy keltirish mumkin. Muiniddin Natanziy haqida Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida Muiniddin Natanziy Sulton Iskandan davrida Iroqu Ajam va Forsda shuhrat topgan olimlar jumlasidan bo'lib, Mirzo Iskandaning maqomot va holoti hamda tarixini yozgan", deb ma'lumot beradi. [4:154]

Muiniddin Natanziy o'z asarini 816/1413/14 yilda yozib tugatgan va dastlab o'sha paytda Fors viloyati hokimi Amir Temurning nevarasi Sulton Iskandar ibn Mirzo Umarshayx (1384-1415) ga bag'ishlagan. Asarning Yevropa sharqshunoslariga dastlab ma'ulm bo'lgan qo'lyozma nusxalari sarlavhasiz hamda muallifi noma'lum bo'lgani uchun, u Bartold tomonidan shartli ravishda "Iskandan Anonim" ("Anonim Iskandara") deb nomlangan. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham asar nomi sifatida qabul qilingan bu ibora "Iskandarga bag'ishlangan muallifi noma'lum asar" deb anglashiladi. [13:11]

Sulton Iskandar hukmronligi davrida ijodkorlar nafaqat forsiy tilda ijod qilganlar, balki turkiy tilda ham ijod qilganlar va bu tilda ijod qilishga targ'ib etganlar. Haydar Xorazmiy o'tmishdoshlari va zamondoshlari boshlagan va Temurbek va temuriyzodalar davrida yangi bosqichga ko'tarilgan turkiy adabiy til va badiiy adabiyotning ravnoqi uchun bo'lgan kurashni o'z ijodi misolida dadil davom ettirdi. Shuning uchun ham uning asarlari Koshg'aru Bosfor bo'g'ozigacha bo'lgan yerlarda yashagan turkiy qavmlar orasida keng tarqalgan. U garchi manbalarda qayd etilganidek birnecha tilda ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da turkiy tilda-o'z ona tilisida ijod etishni turkiy xalqlar farzandining burchi yanglig' qabul etgan va Iskandar Mirzoning taklifini "jon tish"i va "dardu ranj" bilan qabul qilgan. Iskandar Mirzo o'zi she'riyatga qiziqqanligi hamda turkiy tilda ijod qilganligi sababidan shu muqaddas ona tilining ravnaqi uchun shoiru ilm-fan ahllarini doimo qo'llab -quvvatlab, ularni rag'batlantirib turgan. Bu haqda Haydar Xorazmiy "Kitob yozilishining bayoni" bobida Iskandar sulton unga:

Turk zuhuredur ochunda bu kun,  
Boshla uluq yir birla turkona un!  
Rost qil ohangi: Navou Hijoz,  
Tuz Yotug'on birla Shotirg'uni soz!  
Turk surudini tuzuk birla tuz,  
Yaxshi ayolg'u birla ko'kla Qo'buz.

So‘zda maning tavrim erur dilpisand,  
Tab’g‘a gulqand bikin sudmand. [8: 52 a]

Xorazmiy ijodi haqida Davlatshoh Samarcandiy, Alisher Navoiy, Bobur, Komron Mirzo, Shayx Ahmad binn Xudoydod Taroziy, Sayid Qosimiy, Faxriy Hiraviy kabi ustozlar o‘z asarlarida so‘z yuritgan. Haydar “Gulshan ul- asror”ni ajoyib asar ekanini necha bor takidlagan edilar o‘z asarlarida. Chunki, keyingi yillarda topilgan yangi-yangi ma‘lumotlar “Gulshan ul-asror”ni tarjima asar bo‘lmay mumtoz adabiyotimizning nodir na’munasi va uzoq tarixiy taraqqiyotni boshidan kechirib kelayotgan falsafiy-axloqiy dostonlar: “Qutadg‘u bilig” (Yusuf xos Hojib), “Hibbat ul-haqoyiq” (Ahmad Yughnakiy) dostonlarining mantiqiy davomi ekanini tasdiqlaydi. Ushbu asarning birnecha na’munalari bizgachi yetib kelgan.

Nizomiy Ganjaviy nomi qadimdan xalqimiz orasida mashhur, ta’bir joiz bo‘lsa, u o‘zbekning o‘z shoiriga aylanib ketgan. Alisher Navoiygina emas, barcha mumtoz shoirlarimiz uni o‘zlariga ustoz deb bilishgan. XIV asr o‘rtalaridayoq Qutb Xorazmiy uning eng mashhur dostoni “Xusrav va Shirin”ni tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan edi. Oradan bir asr o‘tgach, Haydar Xorazmiy xamsa asoschisining “Maxzan ul-asror” dostoniga javoban “Gulshan ul-asror” asarini yaratadi. [11: 10] “Maxzanul-asror” (Gulshanul-asror) asari 1413 yili Sherozda yozilgan. [12: 236-238]

Abdurazzoq Samarcandiy o‘zining “Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul- bahrain” asarida yozishicha Sheroz viloyatining hukmdori Sulton Iskandar Mirzo fozilu shoirlarni yig‘ib, ulug‘ bobosi Temurbekka o‘xshab ularga homiylik qilgan. Kezi kelganda ularning mehnatiga yuksak baho berib rag‘batlantirib turgan. Bu haqda Abdurazzoq Samarcandiy qiziq bir voqeani keltirgan. U yozadi: “Mavlono Ma’ruf (Ma’ruf xattoti Bag‘dodiy) jahon iste’dodlarining saromadi va zamona nodirasi edi. Xattotlikdan boshqa yana turli –tuman fanlar va xilma-xil kamolotlarga ega edi.

U, Sulton Ahmadi Bag‘dodin yuz o‘girib, Isfahonga Mirzo Iskandar ibn Mirzo Umarshayx huzuriga kelgan va uning kitobxonasiga tayin qilingan edi. Aytishlaricha, Mirzo Iskandar har kuni besh yuz bayt muqarrar qilganiga qaramay, u bir kunda bir ming besh yuz bayt ko‘chirgan va so‘ng ikki kungacha hech narsa yozmagan. Va Mirzo Iskandarning hukmiga xilof ish qilgan. Mirzo Iskandar nega, u ikki kun hech narsa yozmaganini so‘raganda “Bir kunda uch kunlik kitobat qilishni istayman”-deb javob bergen. So‘ng, Mirzo Iskandarning buyrug‘i bilan soyabonlar va chodir tikkanlar. Bir kishi qalam tarashlab turgan. Mavlono esa yozabergan. Nomozgargacha bir ming besh yuz baytni g‘oyat nozik qilib bitirgan. Mirzo Iskandar unga ko‘p in’omlar bergen. [1: 389-390]

Yana shu muallifning yozishicha (1410 voqealarida) Mirzo Iskandar Ko‘shki Zar sahosida Navro‘z ayyomida mamlakat chegaralarini mustahkamlash va yurtni kengaytirish maqsadida arkoni davlat bilan Quriltoy-Kengash o‘tkazgan va har bir kasb egasiga zaruriy topshiriqlar bergen. Xuddi holatni Haydar Xorazmiy “Gulu Navro‘z” dostonida:

Bashoratnama berdi xotiri g‘ayb,  
Hunar qildi hidoyat, butradi ayb.  
Magar axtar muborak urdi folim  
Ki, shahanshoh o‘ngina tushti holim.  
Tarahhum qildi o‘z eski qulina,  
Nazar qildi navosiz bulbulina.  
Buyurdikim, bu gul faslinda darhol.  
Gulu Navro‘zning ovozasin sol!..  
Ayit ul qissani turkiy tilina  
Ki, totqon til, halovatdin bilina.  
Bu farmondin siniq ko‘nglum sevundi,  
Bu ma’niliq avunchoqdin avundi  
Kim, urdi subhidam ma’ni Buroqi,  
Navo tuzdum qadah chevurdi soqi...— [7: 354- 355]

deb shirin xayol og‘ushida o‘sha damlarni esga oladi. Bu xolisona aytilgan fikrlar Iskandar Mirzoning bobosi Temurbekdek turkiy tilning ravnaqi ilm-fan, san’at va adabiyot hamda taraqqiyot muxlisi ekanini dalillash bilan birga, davlatni adolat bilan boshqarishda hamma kasb egalariga hurmat bilan qaraganimi ko‘rsatadi.

“Gul va Navro‘z”ning “Madhi podsho” bobida asarning Iskandar Mirzoga maqtovlar bag‘ishlanganligini ko‘rish mumkin:

Kel ey jon bulbuli pardoz qil,  
Shahanshoh madhini og‘oz qil.  
Sikandar dinining pushti posi,  
Tegishlik yer yuzining podshosi.  
Asolat birla Sulton ibn Sulton,  
Otadin jud surar Xon ibn Xon  
Jaloliddin vad-dunyo muzaffar,  
Bahodir podshoh sulton Iskandar

Shu kabi maqtovlar bilan birga Iskandar Mirzoni ilm homiysi ekanlligi, nafaqat ilmi homiysi, balki uning o‘zi ham olim va ma’rifatli kishi ekanligini ushbu baytlarda ifoda etadi:

Maorif birla irfon ichra ma’ruf,  
Haqoqiyq birla bir mon ichra mavsuf.  
Qomuqi fanlarda sohibi fandin ortuq,  
Bilik birla bo‘lur bilgandin ortuq.  
Ne donish, ne zarkim, ziyda bor,  
Olur ilmu zar, ondin namudor.  
Agar andeshasin qilsa tayyul,  
Badiha shud qilg‘ay juzvdin kul.  
Ne ilmu ulum ichra a’lam,  
Oluslab ilmu ma’lumotni ham.

- deb ushbu baytda Iskandar Mirzoni “Ne ilmu ulum ichra a’lam” har qanday ilm-fanning eng bilimdoni” deb ta’riflaydi.

Davlatshoh Samarqandiying “Tazkirat ush-shuaro” asarida keltirishicha “...Az fuzalo, ki dar ro‘zgori Sulton Iskandar budand Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydar budast, ki dar turky va forsiy ash’ore maleh dorad va javobi “Maxzan”i Shayx Nizomiyro ba turky gufta ba nomi shahzoda Iskandar” (“...Sulton Iskandar hukmronligi davrida Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydar kabi fozil kishilar bo‘lgan ekan. [6:154]

Mavlono Haydarning turkiy va forsiy tillarida yozilgan zavq-shavq bag‘ishlovchi nafis va go‘zal ash’orlari mavjud. Shu bilan birga Shayx Nizomiy “Maxzan”iga turkiy tilda javob aytib, uni shahzoda Iskandarga bag‘ishlagan” deb xabar bersa, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Iskandar Mirzoni hurmat bilan tilga olarkan “Mavlono Haydar turkiygo‘y aning modihi (targ‘ibotchisi)ekandur. Bu aning masnaviyisdin durkim:

Himmat alidur yadi bayzo degan ,  
Er nafasidur dami Iso degan, [3:170]-

baytini keltirib, shoirning talantiga yuksak baho berarkan, bu bahoga ko‘ngli to‘lmay “Muhakamat ul-lug‘atayn”da Haydar Xorazmiy nomini yana hurmat bilan tilga olib, [2:128]uni turkiygo‘y shoirlarning oldingi safiga qo‘yadi va yozadi: “...To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarg‘a intiqol topti... Shohruh Sultonning zamonining oxirig‘acha turk tili bilan shuaro paydo bo‘ldilar...shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqumiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar” deyiladi.

Xulosa shuki, XV asrning birinchi yarmida Fors o‘lkasida, Sulton Iskandar Mirzo hukmronligi vaqtida qisqa vaqt davom etgan bo‘lsada, bu davrda olimlar, ijodkorlar uchun ma’lum bir muhit yaratilgan. Bu adabiy muhitda turli janrlardagi badiiy asarlar, tarixiy-badiiy kitoblar, she’rlar to‘plami-bayoz, rassomchilik, xattotlik sohasida ham ayrim ishlar qilingan edi. Shu davrda Haydar Xorazmiy va Muiyniddin Natanziy kabi yetuk olimlar va ijodkorlar yetishib chiqqan.

### **Adabiyotlar Ro‘Yxati**

1. Абдураззок Самарқандий. Матлаъ ус саъдайн ва мажмаъ ул баҳрайн.-Т: Фан, 1969
2. Алишер Навоий. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. Мухокамат ул -лугатайин. –Т:, Фан, 2000
3. Алишер Навоий, 15 томлик, 12 том, Мажолис ун-нафоис. –Т: Фан, 1997

کیل ای جان بلبلی برداز قیلغیل  
شہنشاہ مدھینی آغاز قیلغیل  
سکندر دینینک بشت پاسی  
تیگیشليک ير يوزينينگ پادشاهي  
اصالات بيرلا سلطان ابن سلطان  
آتابین جد سرار خان ابن خان  
جلال الدین و الدنیا مظفر  
[بهادر پادشاه سلطان اسكندر] 8:4b

معاريف بيرلا عرفان ايچره معروف  
حقائق بيرلا بيرمان ايچره موضوع  
قاموق فن لارده صاحب فندین آرتوق  
بیلیک بيرلا بولور بیلگاندین آرتوق  
نى دانش نى ضر كىم ذى دا بار  
آلور علم و ضر آندىن نمودار  
اڭر اندىشاسى قىلىسا تىحيل  
بىدېھە شەقىلغاي جزو دىن كىل  
نى علم و علوم ايچره اعلم  
الوصلاب علم و معلوماتى هم 8:4b

4. Валихўжаев Б, Ўзбек эпик поэзияси тарихидан.- Т: 1974
5. Бартольд В. В. Сочинения. II томъ 2 часть. –Москва: Наука, 1964
6. Давлатшоҳ Самарқандий.Шоирлар бўстони (Тазкират уш-шуаро), Т., 1981
7. Лутфий. Сенсан севарим. Т., 1987
8. Ҳайдар Хоразмий. Гул ва Наврўз. Туркия, Сулаймония кутухонаси, 1911 рақамли қўлёзма. (Lutfi, Gul u Nevruz, Sulaymoniye Ktp. Leleli, No1911)
9. Суюнов С. Ҳ, Суюнова К.С. Мирзо Улуғбек мактабининг комил инсонни шакллантиришдаги ўрни. “Мирзо Улуғбекнинг жаҳон илм-фани ривожига қўшган ҳиссаси” номли Мирзо Улуғбек таваллудининг 615 йиллиги ва 2009 - халқаро астрономия йилига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари.-Т:Фан, 2009
10. Фахрий Ҳиравий, Равзат ус-салотин, Жавоҳир ул- ажойиб, Т.; Мумтоз сўз, 2014
11. Шайх Низомий Ганжавий Махзун ул-асрор/достон Ганжавий. – Тошкент: Kamalak, 2016
12. Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока.-Москва: Наука, 1985
13. Муиниддин Натанзий. Мутнахаб ут-таворихи Муиний. Форс тилидан Ғулом Каримий таржима қилган. “Ўзбекистон” НМИУ, 2011